

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2026.31.01.FIL.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**QODIRJONOVA IQBOLA BAHODIR QIZI**

**AMERIKA VA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA “YETIM  
BOLA” OBRAZI: DAVR VA RUHIYAT  
(“KRISTOFER POL KERTIS VA XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV  
ASARLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
Tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2026**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological  
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Qodirjonova Iqbola Bahodir qizi**

Amerika va o‘zbek bolalar adabiyotida “yetim bola” obrazi: davr va ruhiyat  
(Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari  
misolida)..... 3

**Kodirjonova Ikbola Bahodir kizi**

The Image of the “Orphan Child” in American and Uzbek Children's  
Literature: Period and Spirituality (Based on the Works of Christopher Paul  
Curtis and Khudoyberdi Tukhaboev)..... 27

**Кодиржонова Икбола Баходир кизи**

Образ “ребенка-сироты” в американской и узбекской детской  
литературе: эпоха и психологизм (на примере произведений  
Кристофера Пола Кертиса и Худайберды Тухтабоева)..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works  
Список опубликованных работ..... 59

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2026.31.01.FIL.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**QODIRJONOVA IQBOLA BAHODIR QIZI**

**AMERIKA VA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA “YETIM  
BOLA” OBRAZI: DAVR VA RUHIYAT  
(“Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3854 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Umarova Maxliyo Yunusovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Lixodziyevskiy Anatoliy Stepanovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Kasimova Ra’no Raxmatulloyevna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92; e-mail: [www.uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:www.uzswlu_info@mail.ru))

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2026-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**A.A.Nasirov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**X.B.Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

**J.A.Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida davr ijtimoiy manzarasining ruhiyatga ta'siri, tasvirlanayotgan voqelik zamiridagi ijtimoiy-ma'naviy muammolar hamda qahramon ruhiyatidagi murakkab qatlamlarning badiiy tahlili turli yo'nalishlarda tadqiq qilinmoqda. Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqea-hodisalar inson fitratidagi evrilishlarga sabab bo'ladi, ammo davrlar o'zgargani bilan tuyg'ular o'zgarmaydi, kechinmalar abadiyatga daxldorligicha qolaveradi. Ayniqsa, bu jarayon yetim bolalar ruhiyatida teran aks etadi, ular ushbu ta'sirning eng sezgir ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy hayotning ota-onasidan erta ayrilgan bolalar ruhiyatiga ta'siri masalasiga ijodkorlar va tadqiqotchilar jiddiy yondashmoqdalar. Yozuvchilar yetim bola obrazidan samarali foydalanib, beg'ubor bolalikni o'rganish, uni chuqur tahlil qilish orqali hayotning murakkabliklari va ziddiyatlarini yanada chuqurroq anglashga intiladilar. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, amerika va o'zbek adabiyotida yetim bola obrazining makrokomparativistik jihatdan tadqiq etilmagani mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida muayyan obrazni qiyosiy tahlil qilish orqali Sharq va G'arb adabiyotlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir hamda adabiy aloqalar aniqlanmoqda. Bu adabiy jarayon zamonaviy adabiyotshunoslikdan yangicha ilmiy-falsafiy yondashuvlarni talab qilmoqda. "Yetimlik" va "yetim bola" obrazi bolalar adabiyotida keng yoritilgan bo'lsa-da, u turli millat adabiyotlarida davr ruhi, ijodiy individualizm hamda adabiy ta'sirlar kontekstida yetarlicha tahlil qilinmagan. Amerika adabiyotida yetim bola obrazi g'arbona qadriyat negizida shaxsiy erkinlik, mustaqil qaror qabul qilish, o'z taqdirini o'zi belgilashga intiladigan, matonatli qahramon sifatida gavdalanadi. Irqiy tengsizlik, kambag'allik, adolatsizlik kabi muammolar girdobida irodali, mustaqil fikrli, ma'naviy-ruhiy kuchga ega yetim bola obrazining tadrijiy takomilini ifodalashda adiblar uslubida universallik va o'ziga xoslik kuzatiladi.

O'zbek adabiyotida ham mazkur mavzuni o'rganish, xususan, bolalar adabiyotida "yetim bola" obrazi orqali aks etgan murakkab kechinmalar, ijtimoiy muammolar va qadriyatlarni talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yetim bola obrazi orqali oilaviy qadriyatlarni ulug'lash, mehr-muruvvat, odamiylik, bag'rikenglik g'oyalari targ'ib qiladi. Mamlakatimizda yetim bolalarga g'amxo'rlik va ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yetim bolalar sonining kamayishi – xalqning yuksak ma'naviyati, insonparvarligi va bolajonlik tuyg'usi bilan bog'liq. Prezidentimiz e'tirof etganlaridek, "Albatta, bolalar uylari va ulardagi yetimlar soni kamaygani, xalqimizning yuksak ma'naviyati, iymon-insofi va bolajonligini ko'rsatib turibdi. Lekin mamlakatimizda umuman yetimlar bo'lmasa, yanada yaxshi bo'lar edi. Shuning uchun imkon qadar ularni munosib oilalarga farzandlikka berishni tezlashtirish choralari ko'rish lozim"<sup>1</sup>. Zero, kelajagimiz davomchilari

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 8-aprelda o'tkazilgan 102-zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashgan maktab internatida Saxovat, Muruvvat va Mehribonlik uylari hamda maxsus maktab-internatlar faoliyati bo'yicha videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqidan // <https://president.uz/oz/lists/view/5118>

bolalar ekan, ularni jismonan baquvvat, aqlan yetuk va ma'nan barkamol, ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalash ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 28-noyabrdagi PQ-380-son "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** G'arb va Sharq adabiyotshunoslari bola olamini aks ettirish, uning ichki dunyosini tahlil qilishga jiddiy e'tibor qaratishmoqda. Shu bois, bolalar adabiyotida "yetim bola" obrazini o'rganish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Bola obrazining ilmiy-nazariy muammolari Amerikada M.Berg, M.A.Kimball, S.E.Reynolds, Y.Choi, A.A.Mattix, A.Zinat, E.E.Kreyn, J.M.Kertis, M.Mezyk, R.Shi, K.J.Rupertus, D.Atkinson<sup>2</sup>, Kanadada G.K.Sheron, Angliyada U.D.Floyd, Shvetsiyada S.Friss, Ispaniyada T.H.Ali Xeir Bek, Chexiyada

---

<sup>2</sup> Berg M. The outcast Orphan in German and American Literature, Doctoral thesis. – Washington: University of Washington, 1994. – 164 p.; Kimball A., From M. Folktales to Fiction: Orphan Characters in Children's Literature // Library Trends, 1999. – № 47, 3. – P. 558-578; Reynolds S.E. Oliver all over again: Dickensian narratives of orphanhood, Tuscaloosa, Doctoral thesis. – Alabama: The University of Alabama, 2012. – 236 p.; Choi Y. Orphans and Class Anxiety in Nineteenth-century English Novels. Doctoral thesis. – New York: Stony Brook University, 2008. – 199 p.; Mattix A.A. The orphan among Us: an Examination of Orphans in Newbery Award Winning Literature. Doctoral thesis. – Pittsburg: University of Pittsburg, 2012. – 272 p.; Zeenat A. The Spectacle of Orphanhood: Reimagining Orphans in Postbellum Fiction. Doctoral thesis, 2015. – 132 p.; Graduate Theses and Dissertations Retrieved from <https://scholarworks.uark.edu/etd/1275>; Crain E.A. The Power of the Other: A Character Analysis of the Orphan Figure in Children's literature, Doctoral thesis. – Memphis: University of Memphis of Digital Commons, 2016. – 160 p. // <https://digitalcommons.memphis.edu/etd/1559>; Curtis J.M. In Absentia Parentis: The Orphan Figure in Latter Twentieth Century Anglo-American Children's Fantasy, Doctoral thesis. – Hattiesburg: University of Southern Mississippi, 2016. – 240 p. // <https://aquila.usm.edu/dissertations/322>; Mezyk M. Orphan Benefactors and Orphan Innocence in Charles Dickens and Helen Hunt Jackson, Doctoral thesis. – Montclair: Montclair State University, 2017. – 34 p. // <https://digitalcommons.montclair.edu/etd/94>; Ruoqi shi B.A. The Passionate Rebel: The Female Orphan in Jane Eyre, Wuthering Heights and Bleak House. Master of Arts thesis. – Washington: Georgetown University, 2017. – 73 p. // <http://hdl.handle.net/10822/1043856>; Rupertus Ch.J. Anxieties Of Belonging: The Trope Of the Orphan In African American Novels. Dissertation. – Philadelphia: Temple University, 2018. – 109 p. // <http://cdm16002.contentdm.oclc.org/cdm/ref/collection/p245801coll10/id/485357>; Atkinson J. The impact of mother-son relationships on the abandoned boy in children's literature // Master of Arts thesis. – New Jersey: The State University of New Jersey, 2019. – 44 p. // <https://doi.org/10.7282/t3-br2m-cx17>.

K.Vyorlova va L.Maslakova, Rossiyada O.Buksina va A.Lanu, N.A.Yushkina, Y.Y.Pavlenko va R.X.Sharyafetdinov, Y.V.Kamishova va V.N.Buldijova, T.Kachak, Hindistonda S.Terangpi, G.Lalmavizuala<sup>3</sup> kabi olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. “Yetim bola” obrazini milliy-madaniy kontekstda tahlil qilish, uning adabiyotdagi o‘rnini belgilash bo‘yicha Z.Safarova, M.Norbaboyeva, A.Rajabov<sup>4</sup>ning tadqiqotlari mavjud.

Amerikalik bolalar adibi Kristofer Pol Kertis (Christopher Paul Curtis)ning ijodi va faoliyati P.E.Morgan, A.A.Mattix, W.Lamb, C.Bell<sup>5</sup> kabi tadqiqotchilar

<sup>3</sup> Goerzen C.S. Narratives of Transformation: Orphan Girls, Dolls and Secret Spaces in Children's Literature. Master of Arts Thesis. – Vancouver: The University of British Columbia, 2006. – 119 p.; Floyd W.D. Orphans of British Fiction, 1880-1911. Doctoral thesis. – Stirling: English Studies University of Stirling, 2011. – 316 p.; Friis C. Abandoned Children in Literature: The Orphans in J.K.Rowling's: Harry Potter and the Philosopher's Stone. Degree essay. – Lund, Lund University, 2013 – 19 p.; Bek T.H. Orphans in Society: A Comparative Study of Gender Differences in Selected Works of Children's Literature. – Granada: Universidad de Granada, 2017. – 136 p.; Vyorlova K. Orphans in the Victorian Era in Jane Eyre and Oliver Twist. Bachelor's thesis. – Zlin: Tomas Bata University, 2019. – 65 p.; Maslakova L. Liminality in Neil Gaiman's and J.K.Rowling's Fiction. Orphan Heroes and Their Rites of Passage. – Czech Budejovice: University of South Bohemia in Czech Budejovice, 2020. – 66 p.; Бухина Ольга, Лану Андреа Герои-сироты в детской литературе: отражение социального кризиса начала и конца советской эпохи // Детские чтения, 2015. – № 1 (7). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/geroi-siroty-v-detskoj-literature-otrazhenie-sotsialnogo-krizisa-nachala-i-kontsa-sovetskoj-epohi> (дата обращения: 30.10.2024); Юшкина Надежда. Александровна Социокультурная адаптация детей-сирот посредством литературы // Вестник ГУУ., 2018. – № 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiokulturnaya-adaptatsiya-detey-sirot-posredstvom-literatury> (дата обращения: 30.10.2024); Павленко Е.Е., Шарьяфетдинов Р.Х. Образы детей-сирот в национальной литературе // Мировая словесность для детей и о детях, 2020. – С. 56-62; Камышова Е.В., Булдыжова В.Н. Возможности применения метода анализа художественной литературы в исследовании проблем детей-сирот в современной России // Изучение социальных проблем, вызванных семейно-демографической ситуацией в России, методами социальных наук (к 25-летию кафедры социальной работы МГУ им. Н.П.Огарёва), 2021. – С. 35-35; Kachak T. Social Orphanhood in Contemporary Ukrainian Literature for Children and Young People. Društvo uvjetovana siročad u suvremenoj ukrajinskoj dječjoj književnosti i književnosti za mladež. Libri et liberi. 11, 2022. – P. 13-33. 10.21066/carcl.libri.11.1.1; Terangpi S. A Critical Study of Charles Dickens and Mark Twain's Orphan Hero. Veda's Journal of English Language and Literature JOELL, 2017. Vol. 4. No. 4. – P. 01-05; Lalmawizuala H. The Orphan Hero in Mizo Folklore // Journal of MIELS, 2014. – P. 61-73.

<sup>4</sup> Safarova Z.T. Analysis of Orphan Images and Orphanhood in Children's Literature // Scientific Reports Of Bukhara State University. – Bukhara, 2020. – № 6. – P. 217; Safarova Z.T. & Urayeva D.S. The Similar Features in Depiction of Orphans' Life in Children's Adventure Novels // Theoretical & Applied Science, 2020. – № 04 (84). – P. 343-347 // <https://doi.org/10.15863/tas.2020.04.84.59>; Safarova Z.T. Description of The Images of Orphan Children in Askad Mukhtor's Work “Children of The World” // International Scientific Forum on language, literature, translation, literary criticism: international scientific-practical conference on modern approaches and perspectives. Buxoro Davlat Universiteti. – Buxoro, 2021. – P. 217-221; Safarova Z. J.K.Roulingning “Garry Potter va afsonaviy tosh” asarida yetim obrazlar tasviri // Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz). – Bukhara, 2022. – № 14(14). – В. 401-405 // [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/6682](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6682); Norbaboyeva M.T. Поэтическая интерпретация образа “Сирота” в повести “Прощай, детство!” // Общество и инновации, 2022. – № 1. – С. 247-252; Norbabayeva M.T. The Role of The Image of An Orphan in Social Life // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2022. – № 3, 12. – P. 656-660; Norbaboyeva M.T. Badiiy adabiyotda obrazlar tizimi va “yetim bola” obrazi / “Filologiya ta’limi masalalari: muammo va uning yechimlari” mavzusidagi Xalqaro amaliy anjuman materiallari to’plami. – Toshkent, 2022. 11-may. – В. 389-391; Norbabayeva M.T. Yetimlik mavzusining istiqloq konsepsiyasi asosidagi poetic ifodalanishi // TAFakkur ziyosi, 2022. – № 4. – В. 142-144; Norbabayeva M. Postmodernist Interpretation of The Orphans Motif // Академические исследования в современной науке, 2024. – № 3, 23. – P. 34-36; Norbabayeva M. The Motif of Orphans in Folklore and Written Literature // Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences, 2024. – № 3, 9. – P. 9-12; Rajabov A., Jalilova L. The peculiarities of psychological characteristics of the main hero in J.Rowling's heptalogy of Harry Potter // International Engineering Journal For Research & Development, 2021. Volume 6. Issue 2. – P. 1-5.

<sup>5</sup> Morgan P.E. History for Our Children: An Interview with Christopher Paul Curtis, a Contemporary Voice in African American Young Adult Fiction // MELUS, 2002. T. 27. – № 2. – P. 197-215; Mattix A.A. The Orphan Among Us: An Examination of Orphans in Newbery Award Winning Literature. Doctor of Philosophy (PhD) dissertation in Education. – Pittsburgh, 2012. – 290 p.; Meythaler A. Newbery Medal Winning Author Christopher Paul Curtis [Электронный ресурс] // Mackin Community, 2013. 17 dek. URL: <https://www.mackincommunity.com/2013/12/17/newbery-medal->

tomonidan adabiy-nazariy jihatdan tadqiq qilingan.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning ijodi borasida adabiyotshunos va adabiy tanqidchilar tomonidan keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, U.D.Musayeva, F.Y.Jo‘rayeva, R.S.Tulabayeva, N.R.Yarashova, J.A.Lutfullayev<sup>6</sup> kabi o‘zbek olimlarining ilmiy maqolalari hamda tadqiqot ishlarida adib ijodi va asarlari yuzasidan adabiy-nazariy hamda adabiy-tanqidiy qarashlar aks etgan. Ammo mazkur tadqiqotda “yetim bola” obrazi davr va ruhiyat talqinida Amerika va o‘zbek bolalar adabiyoti doirasida K.P.Kertis hamda X.To‘xtaboyev asarlari misolida ilk marotaba maxsus o‘rganilmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Jahon adabiyoti kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida “yetim bola” obrazi tasvirida davr va ruhiyatning badiiy ifodasini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

adabiyotshunoslikda “yetim bola” obrazining yuzaga kelishi, tasvirlash mezonlari hamda o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan dalillash;

Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida “yetim bola” obrazini tasvirlashda an’ana hamda novatorlikning namoyon bo‘lishini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish;

Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyevning zamon hamda makon tasviri asosida voqelikni haqqoniy va ishonarli ifodalash, bola ruhiyatini ochish hamda kitobxonni voqealar muhitiga olib kirish mahoratini qiyosiy o‘rganish;

“yetim bola” obrazi tasvirida jamiyat va ruhiyat uyg‘unligini Kristofer Pol Kertis hamda Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari asosida tadqiq etish;

“Baddi emas, Bad” va “Besh bolali yigitcha” romanlarida “yetim bola” obrazining farqli hamda universal jihatlarini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Kristofer Pol Kertisning “Baddi emas, Bad” (“Bud, not Buddy”) va Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” romanlari tanlangan.

---

[winning-author-christopher-paul-curtis/](https://www.publishersweekly.com/pw/by-topic/childrens/childrens-authors/article/84793-in-conversation-christopher-paul-curtis-and-wendy-lamb.html) [murojaat sanasi: 17.07.2024]. Matn ingliz tilida; Lamb W. In Conversation: Christopher Paul Curtis and Wendy Lamb [Elektron resurs] // Publishers Weekly, 2020. URL: <https://www.publishersweekly.com/pw/by-topic/childrens/childrens-authors/article/84793-in-conversation-christopher-paul-curtis-and-wendy-lamb.html>; Bell C. Christopher Paul Curtis, author and Flint native wins lifetime achievement award // East Village Magazine. – Flint, 2024. – № 59/23 [murojaat sanasi: 17.07.2024]. Matn ingliz tilida; Christopher Paul Curtis Biography. – Reading Rockets, WETA Public Broadcasting. URL: <https://www.readingrockets.org/authors/christopher-paul-curtis> [Murojaat etilgan sana: 17.07.2025].

<sup>6</sup>Musayeva U.D. X.To‘xtaboyev romanlarining syujet va konflikt xususiyatlari. Filol. fan. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 1997; Jo‘rayeva F.Y. Tipologik obrazlarning qiyosiy tahlili (Lev Tolstoyning “Hojimurod” va Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Qasoskorning oltin boshi” asarlari misolida). Filol. fan. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2000; Tulabayeva R.S. Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm. Filol. fan. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2019; Yarashova N.J. XXI asr o‘zbek bolalar adabiyoti tili va uslubi (X.To‘xtaboyev ijodi misolida). Filol. fan. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2020; Lutfullayev J.A. O‘zbek bolalar adabiyoti romanchiligining taraqqiyot tamoyillari va Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodi. Filol. fan. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2022.

**Tadqiqotning predmetini** Amerika va o'zbek bolalar adabiyotida "yetim bola" obrazining badiiy, ijtimoiy hamda estetik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, biografik, sotsiologik, poetik, psixanalitik, germeneytik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

"yetim bola" obrazining tadrijiy takomilida G'arb adabiyotidagi realistik psixologizm paradigmasi, individualizm va ijtimoiy tengsizlikka qarshi ruhiy kurash g'oyalari hamda Sharq adabiyotiga xos tarbiyaviy-didaktik model, axloqiy komillik konsepti va ijtimoiy mas'uliyatni ulug'lash an'analari ustuvorligini aniqlash zaminida "yetim bola" obrazining shunchaki badiiy-estetik element emas, balki insonning jamiyatdagi mavqei va ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi yaxlit sotsio-psixologik tizim ekanligi qiyosiy, biografik va germeneytik tahlil orqali ochib berilgan;

Kertisga xos afro-amerika og'zaki hikoyachiligi hamda To'xtaboyev poetikasidagi folklorik kodlarning o'zaro sintezi oddiy adabiy ta'sir emas, balki an'ana va novatorlik tamoyillari asosida milliy mentalitet hamda umuminsoniy qadriyatlarni interpretatsiya qiluvchi yaxlit badiiy konsepsiya ekanligi qiyosiy-tipologik va poetik tahlil usullari asosida ilmiy isbotlangan;

"yetim bola" obrazini talqin qilishda Kertis ijodidagi ijtimoiy determinizm hamda To'xtaboyev asarlaridagi folklorik obrazlilik ustuvorligi, shuningdek, tarixiy davrning estetik refleksiyasi, zamon va makon mutanosibligi va ijtimoiy haqiqatlarning ironiya hamda komizm orqali yoritilishi shunchaki badiiy tasvir vositasi emas, balki ijodkorning ijtimoiy voqelikka munosabatini ifodalovchi badiiy paradigma ekanligi qiyosiy-sotsiologik va biografik tahlil usullari orqali ilmiy asoslangan;

K. P. Kertis va X. To'xtaboyev asarlarida "yetim bola" obrazining ruhiy holatlar dinamikasi, emotsional munosabatlar tizimi, ichki konfliktlar, qahramon va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy moslashuv jarayonlari va identifikatsiya mexanizmlarining faqat badiiy syujet komponenti emas, balki asarning yetakchi psixologik-badiiy konseptual asosi ekanligi motiv-obraz tahlili, ijtimoiy-madaniy va tipologik qiyoslash metodlari asosida dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

milliy va xalqaro adabiy an'analarni qiyoslab o'rganish mobaynida Amerika va o'zbek bolalar adabiyotida "yetim bola" obrazidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlangan;

"yetim bola" obrazini tahlil qilish orqali zamonaviy bolalar adabiyotidagi badiiy asarlarni tahlil qilish metodologiyasi takomillashtirilgan;

"yetim bola" obrazining jamiyatdagi muammolar (ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik, yetimlar holati)ning qanday aks ettirilishini tushunishga yordam beruvchi masalalarga e'tibor qaratilgan;

K.P.Kertis va X.To'xtaboyevning "yetim bola" obrazini yaratishda foydalanilgan badiiy uslub hamda vositalar o'rganilib, yozuvchilarning ijodiy faoliyati keyingi tadqiqotchilarga adabiy-estetik manba vazifasini bajarishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyevning asarlari aniq belgilangan mezonlarga ko‘ra tanlangani, tadqiqotda asarlarning turli jihatlari (davr, ruhiyat, obraz yaratish usullari) keng qamrab olingani, qiyosiy-tipologik, biografik, sotsiologik, poetik, psixoanalitik, germeneytik tahlil usullarining qo‘llanilgani natijalar ishonchliligini ta‘minlaydi.

**Tadqiqotning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalar itoatkor, isyonkor, himoyaga muhtoj “yetim bola”lar obrazining ilmiy-nazariy xususiyatlari, yo‘qotish, mehrga chanqoqlik, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilish, o‘zini anglash motivlarining obrazni shakllantirishdagi ahamiyati, obraz qurilishining umumiy va milliy xususiyatlari, Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida “yetim bola” ruhiyati hamda ijodkorlarning obraz yaratish mahorati bo‘yicha ilmiy-nazariy muammolarni o‘rganish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yetim bola ruhiyati muammosini Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlari misolida qiyosiy tahlil etish yuzasidan chiqarilgan xulosalardan adabiyotshunoslikka kirish hamda qiyosiy adabiyotshunoslik, o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti tarixi, jahon adabiyoti, bolalar adabiyoti fanidan darslik va qo‘llanmalar yaratish, XX asr amerika va o‘zbek adabiyotiga tegishli izlanish hamda tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Amerika va o‘zbek bolalar adabiyotida “yetim bola” obrazini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

“yetim bola” obrazining tadrijiy takomilida G‘arb adabiyotidagi realistik psixologizm paradigmasi, individualizm va ijtimoiy tengsizlikka qarshi ruhiy kurash g‘oyalari hamda Sharq adabiyotiga xos tarbiyaviy-didaktik model, axloqiy komillik konsepti va ijtimoiy mas‘uliyatni ulug‘lash an‘analari ustuvorligini aniqlash zaminida “yetim bola” obrazining shunchaki badiiy-estetik element emas, balki insonning jamiyatdagi mavqei va ma‘naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi yaxlit sotsio-psixologik tizim ekanligi qiyosiy, biografik va germeneytik tahlil orqali ochib berilganligiga oid nazariy xulosalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Britaniya Kengashi (British Council) bilan hamkorlikda 2020-2022-yillarda amalga oshirilgan “English as a school subject” (1683580) nomli xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihasida samarali foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 8-maydagi 04-04-1/2264-son ma‘lumotnomasi). Natijada xalqaro loyiha doirasida yaratilgan yangi avlod o‘quv adabiyotlari mazmun-mundarijasiga ko‘ra takomillashtirilgan;

Kertisga xos afro-amerika og‘zaki hikoyachiligi hamda To‘xtaboyev poetikasidagi folklorik kodlarning o‘zaro sintezi oddiy adabiy ta‘sir emas, balki an‘ana va novatorlik tamoyillari asosida milliy mentalitet hamda umuminsoniy qadriyatlarni interpretatsiya qiluvchi yaxlit badiiy konsepsiya ekanligi qiyosiy-tipologik va poetik tahlil usullari asosida ilmiy isbotlanganligi borasidagi xulosa va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Toshkent shahri bo‘limi faoliyatida, adabiy kechalarida, ijodkor yoshlar bilan uchrashuvlarida

foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 11-iyuldagi 01-03/908-son ma’lumotnomasi). Natijada bolalar adabiyotini chuqur o‘rganish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirib, ular o‘rtasidagi kitobxonlikni rag‘batlantirish bo‘yicha tizimli ishlarni joriy etish, shu bilan birga, Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyevning obraz yaratish mahorati, ikki xil madaniyatning o‘xshash badiiy qonuniyatlari bo‘yicha bilimlarni oshirishga xizmat qilgan;

“yetim bola” obrazini talqin qilishda Kertis ijodidagi ijtimoiy determinizm hamda To‘xtaboyev asarlaridagi folklorik obrazlilik ustuvorligi, shuningdek, tarixiy davrning estetik refleksiyasi, zamon va makon mutanosibliigi va ijtimoiy haqiqatlarning ironiya hamda komizm orqali yoritilishi shunchaki badiiy tasvir vositasi emas, balki ijodkorning ijtimoiy voqelikka munosabatini ifodalovchi badiiy paradigma ekanligi qiyosiy-sotsiologik va biografik tahlil usullari orqali ilmiy asoslanganligi xususidagi taklif va tavsiyalardan “O‘zbekiston” teleradiokanalida 2024-yil sentyabr-dekabr hamda 2025-yil fevral-may oylarida efirga uzatilgan “Millat va ma’naviyat”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” nomli eshittirishlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yil 4-avgustdagi 05-09-1272-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarning Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodiy uslubi, asarlarining ijtimoiy va ma’naviy ahamiyati, obraz yaratish mahoratidagi universallik hamda o‘ziga xoslik bo‘yicha bilimlarini oshirishga erishilgan;

K. P. Kertis va X. To‘xtaboyev asarlarida “yetim bola” obrazining ruhiy holatlar dinamikasi, emotsional munosabatlar tizimi, ichki konfliktlar, qahramon va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy moslashuv jarayonlari va identifikatsiya mexanizmlarining faqat badiiy syujet komponenti emas, balki asarning yetakchi psixologik-badiiy konseptual asosi ekanligi motiv-obraz tahlili, ijtimoiy-madaniy va tipologik qiyoslash metodlari asosida dalillanganiga oid xulosalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2023-2025-yillarda bajarilishi mo‘ljallangan “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 20-fevraldagi 04-04-1/852-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida tashkil qilingan, doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan “Komparativistika” jurnalida “Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida “yetim bola” obrazi poetikasi” nomli maqola chop etilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 9 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4tasi Respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 163 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan. Shuningdek, mavzuning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jahon va o'zbek bolalar adabiyotida “yetim bola” obrazining badiiy ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobining ilk fasli *“Jahon adabiyotshunosligida “yetim bola” obrazining ilmiy-nazariy masalalari”*ga bag'ishlangan. Jahon adabiyotshunosligida “bolalar adabiyoti” va “bolalar uchun adabiyot” tushunchalari mazmunan biroz farq qilsa-da ikkisining ham maqsadi hamda qamrov maydoni bir-biriga yaqin. Bolalar adabiyoti keng ma'noda turli yoshdagi bolalar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy va publitsistik asarlar majmuyidir. Tor ma'noda esa bolalar uchun mo'ljallangan sof badiiy asarlar tushuniladi. Bolalar uchun adabiyot deganda, bolalar o'qib tushuna olishi mumkin bo'lgan har qanday yozma matn nazarda tutiladi.

Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida bolalar adabiyoti tushunchasi fanga so'nggi yuz yilliklarda kirib kelgan bo'lsa-da, uning namunalari umumadabiyotning ajralmas qismi sifatida xalq og'zaki ijodida avvaldan mavjud bo'lgan<sup>7</sup>. “Yetim bola” obrazi esa bu jarayonda alohida o'rin tutadi, chunki bu obraz boshqa obrazlardan farqli ravishda bolalar hayotidagi murakkabliklarni, ijtimoiy muammolarni va bolalar ruhiyatini yoritishda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. XIX-XX asrlarda realizm hamda ijtimoiy islohotlarning rivoji bilan bir qatorda “yetim bola” obrazining adabiyotda keng qo'llanilishi kuzatiladi. Rus bolalar adabiyotining asoschisi Samuil Marshak nazariyasiga<sup>8</sup> asosan bolalar adabiyotidagi badiiy obrazlarning bir nechta o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tish mumkin: a) oddiy va tushunarli bo'lishi; b) ta'limiy va axloqiy saboq bera olishi; c) hayotiy va jonli bo'lishi; d) fantaziya va real dunyoni uyg'unlashtira olishi bilan farq qiladi. Bolalar adabiyotida ko'p uchraydigan obrazlar sirasiga *bola, yetim bola, sehrgar yoki jodugar, mehribon va dono murabbiy, pari yoki sehrli mavjudot, insoniy xususiyatlarga ega hayvonlar obrazi* kabilar kiradi. “Yetim bola” obrazi insoniyatning tashlab ketilish qo'rquvini aks ettiruvchi adabiy fenomen hisoblanadi<sup>9</sup>. Adabiyotshunoslikda ushbu obrazning o'rganilishi ko'p qirrali va dolzarb

<sup>7</sup> Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 6.

<sup>8</sup> Jamilova B. Bolalar adabiyotida zamonaviylik. O'quv qo'llanma. – Buxoro: Bukhara Hamd Print, 2023. – B. 217.

<sup>9</sup> Kimball M.A. From Folktales to Fiction: Orphan Characters in Children's Literature // Library Trends, 1999. – № 47. – P. 558-578.

mavzulardan biridir. Lund universiteti tadqiqotchisi Friss<sup>10</sup>ga ko‘ra, yetimlik mavzusi ommabopligi uning hammaga tanish hissiyotlar bilan bog‘liqligidir. Virjiniya A.Uolter yetim qahramonlarning shakllanish jarayonini “o‘zini kashf qilish sayohati” sifatida ta’rifladi, B.Uilson va K.G.Short bolalar tarbiyasida erkinlikning ortiqcha ta’siri borligini tanqid qiladi. Tadqiqotchilar yetim obrazining jamiyatdagi rolini turli nuqtayi nazardan o‘rganadilar. M.Berg nemis va Amerika adabiyotidagi yetim qahramonlarni uch guruhga ajratib, ularning jamiyatdan chetlanish sabablarini tahlil qiladi. M.A.Kimball xalq ertaklaridagi yetim obrazining kelib chiqishi sabablarini o‘rganadi. K.Sh.Gertsen bolalar adabiyotidagi yetim qiz qahramonlar va ularning shaxsiy rivojlanishini tahlil qiladi. Y.Choi XIX asr ingliz romanlarida yetimlarni “autsayder” sifatida ko‘rsatadi va ularning ijtimoiy chegaralar bilan ziddiyatini ochib beradi. U.D.Floyd Viktoriya davri nasrida yetim obrazining gotik jihatlarini izohlaydi. S.E.Reynolds ushbu obrazni Angliyada o‘rta tabaqa qadriyatlarini himoya qiluvchi timsol sifatida ko‘rsatadi. A.A.Mattiks Nyuberi mukofoti sovrindori asarlardagi yetimlarni o‘rganib, ularning adabiyotda qahramon sifatida qanday aks ettirilganini, S.Friss Garri Potter romanidagi uch yetim qahramon (Garri, Nevill va Voldemort) shaxsiyati va shaxsiy rivojlanishini qiyosiy o‘rganadi. E.E.Kreyn “yetim bola” obrazining adabiy evolyutsiyasini Dikkens, Kipling va Montgomeri asarlari orqali tahlil qiladi. T.H.Ali Xeyr Bek bolalar adabiyotida yetimlarning gender tafovutini o‘rganib, jamiyatga moslashish jarayonidagi muhim farqlarni ko‘rsatadi. K.Vyorlova Viktoriya davri yetimlarini jins va ijtimoiy tabaqa doirasida tahlil qiladi. L.Maslakova esa Garri Potter va “Qabrston haqida hikoya” asarlarida yetim qahramonlarning turli ijodkorlar tomonidan qanday tasvirlanganini taqqoslaydi. Ushbu tadqiqotlar yetim obrazining adabiy va ijtimoiy ahamiyatini ochib berib, ularning jamiyat va shaxs rivojidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Har bir “yetim bola” obrazi o‘z zamonasi va muhitidan kelib chiqib shakllantirilgan bo‘lib, ular inson ruhiyati, jamiyat va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’sirini ifodalaydi. Ilmiy tadqiqot ishlarini ko‘zdan kechirish orqali yetimlik motivining adabiyotda qo‘llanishi sabablarini quyidagicha ifodalash mumkin: a) ijtimoiy-siyosiy masalalarga e’tibor qaratish; b) ramziy va psixologik tushunchalarni ifodalash; c) qiziqarli syujet va xarakter yaratish; d) tarixiy va madaniy kontekstni aks ettirish; e) kitobxonlarda hissiy munosabat va empatiya uyg‘otish.

Jahon adabiyotshunoslari tomonidan yetim bola obrazlarini tadqiq qilish turli ijtimoiy, tarixiy va ilmiy shart-sharoitlar ta’sirida ommalashib bordi. XIX asrda realizmning rivojlanishi jamiyatdagi kambag‘allik va bolalar ekspluatatsiyasi muammolariga e’tiborni kuchaytirib, yetimlarga bo‘lgan ijtimoiy qiziqishni orttirdi. XX asr boshlarida psixoanaliz nazariyalari (Froyd, Yung) adabiyotda yetim qahramonlarning ichki kechinmalarini tahlil qilishga yo‘l ochdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin yetimlar sonining ko‘payishi bu mavzuning adabiy aksini kengaytirdi. XX asr oxiri va XXI asrda feminizm, postkolonializm, kvir nazariyasi kabi tanqidiy yondashuvlar yetim obrazlarini yangi nuqtayi nazardan baholashga

---

<sup>10</sup> Friis C. Abandoned Children in Literature: The Orphans in J.K.Rowling’s: Harry Potter and the Philosopher’s Stone. Degree essay. – Lund, Lund University, 2013. – P. 19.

sabab bo'ldi. Shu davrda yetimlik mavzusiga bo'lgan qiziqish ham ortib, u fanlararo izlanishlar bilan boyimoqda. O'zbek adabiyotida yetimlik mavzusi, uning she'riyat va nasrda aks ettirilishiga oid tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, Amerika va o'zbek bolalar adabiyotida "yetim bola" obrazini bevosita qiyoslovchi tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Ikki millat adabiyotidagi ushbu mavzuning ommalashuvi O'zbekistonda Ikkinchi jahon urushi davriga to'g'ri kelsa, Amerikada esa Buyuk depressiya va Fuqarolar urushi ta'sirida yetim bolalar sonining ortishi asarlarda "yetim bola" obrazi keng qo'llanilishiga turtki bo'ldi. Zamonaviy adabiy tendensiyalar zamonaviy Amerika va o'zbek bolalar adabiyotida yetim bolalar tasviri, xususan, qashshoqlik, urush, migratsiya kabi dolzarb ijtimoiy muammolar kontekstida ko'proq tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Dissertatsiyaning "*Jahon va o'zbek adabiyotida yetim bola obrazining tadrijiy takomili*" nomli ikkinchi faslida jahon, Amerika va o'zbek adabiyotida "yetim bola" obrazining rivojlanish tendensiyalari borasida mulohaza yuritilgan. Qur'oni karim va Bibliyada yetimlarga g'amxo'rlik qilish, ularning huquqlarini himoya qilish buyurilgan. Bu qadriyatlar jahon adabiyotida yetim obrazlarini yaratishda ma'naviy poydevor bo'lib xizmat qilgan. Qadimgi yunon va rim adabiyotida yetimlik motivi keng tarqalgan bo'lib, Sofoklning "Shoh Edip" asari va Rim afsonalarida (Romul va Rem) uchraydi. Yetim bolalar haqidagi ertaklar asrlar davomida jahon adabiyotining bir qismi bo'lib. Amerika adabiyotida ham muhim o'rin tutadi. XVII asrda yozilgan Sharl Perroning "Zolushka" ertagida sabr-matonat va yaxshilikning yomonlik ustidan g'alabasi tasvirlansa, keyinchalik Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" va Charlz Dikkensning "Oliver Tvist" asarlarida yetim qahramonlar orqali ijtimoiy adolatsizlik masalalari yoritiladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Syuzan Kulidjning "Keti nima qildi", Johanna Spyrining "Haydi", Fensis Xodjson Bernettning "Kichik malika" va "Maxfiy bog'", L.M.Montgomerining "Yashil Geybdagi Anna" kabi asarlarida yetim qahramonlar tasvirlanib, ularning hayotdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishlari tasvirlangan. Zamonaviy adabiyotda ham bu motiv davom etib, J.K.Roulingning "Garri Potter" seriyasi va Lemoni Sniketning "33 baxtsizlik" kabi asarlarida yetim qahramonlar orqali sarguzasht va o'zini anglash mavzulari yoritiladi. Amerika adabiyotida "yetim bola" obrazlari XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida shakllana boshlagan. Dastlab, bu asarlar bolalar adabiyoti doirasida bo'lib, oq tanli yetim qahramonlar haqida hikoya qilgan. Masalan, Luiza Mey Olkottning "Sakkiz amakivachchalar" romanidagi Roz yoki Mark Tvenning "Tom Soyer" asaridagi Tom shular jumlasidandir. XIX asr oxirida Amerika adabiyotidagi "yetim bola" obrazlari didaktik vazifani bajarib, o'rta tabaqa vakillariga fuqarolik va axloqiy qadriyatlarni singdirish maqsadida ideal qahramonlar sifatida tasvirlangan. Ular individuallik va o'z-o'zini tarbiyalash g'oyalarini ilgari surib, jamiyatning axloqiy ehtiyojlariga javob bera oladigan shaxslar sifatida gavdalantrilgan. XX asrda sanoat inqilobi va ijtimoiy o'zgarishlar "yetim bola" obrazlarini murakkabroq talqin qilishga sabab bo'ldi. Edit Uorton va Teodor Drayzer asarlarida yetim qahramonlar ijtimoiy bosim ostida qolib, hayotiy sinovlarga duch kelishini aks ettirdi. Jon Apdayk, Filip Roz va Toni Morrison esa qahramonlarning ichki kechinmalariga urg'u beruvchi psixologik realizm uslubida

yetim bola obrazlarini tasvirladilar. XXI asrda ham “yetim bola” obrazi o‘z dolzarbligini yo‘qotmadi. Kristofer Pol Kertis, Donna Tartt, Entoni Dorr va Kent Kruegerning asarlarida yetim qahramonlar murakkab ijtimoiy hamda tarixiy sharoitlarda o‘z o‘rnini topishga intiladi. Zamonaviy adabiyot “yetim bola” obrazlari orqali jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettirishda davom etmoqda.

O‘zbek adabiyotida esa “yetim bola” obrazi ilk bor qadimgi yozma manbalarda va xalq og‘zaki ijodida yoritiladi. Sehrli-fantastik ertaklarda ham “yetim bola”lar sarguzashtlari ko‘p uchraydi. Masalan, “Zumrad va Qimmat”, “Varqa bilan Gulshoh”, “Sirli shamchirog”, “Bahodir tabib”, “Yoriltosh” kabi ertaklarda ushbu obraz adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlikni yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Yetimlarga munosabat xalq maqollarida ham aks etgan: “Holvani hokim yer, Kaltakni – yetim”, “Yetimning yegani – zahar, Kiygani – kafan”, “Yetim boshing silasang, Hajga bormoq ne darkor”, “Yetimning rizqi yerda” va boshqalar. Bu maqollarda yetimlarga ijtimoiy adolat va mehr-muruvvat zarurligi ta’kidlangan. O‘zbek mumtoz adabiyotida ham yetimlik motivi mavjud bo‘lgan. Ahmad Yassaviy hikmatlarida payg‘ambar Muhammad (s.a.v) timsolida yetim obrazi yoritilib, yetimlarga yaxshilik qilishga da’vat etiladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida yetimlarga g‘amxo‘rlik qilish adolat mezoni sifatida ko‘rsatiladi. Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida Yusuf alayhissalom yetim obrazida tasvirlanadi. XX asrga kelib Sadridin Ayniy ijodida yetimlik mavzusini atroflicha yoritganini ko‘rish mumkin. Uning “Odina” va “Yetim” qissalari yetim bolalar hayotini aks ettirib, ularning jamiyatdagi mashaqqatlari va adolatsizliklar bilan kurashini tasvirlaydi. Bu asarlar XX asr boshidagi jamiyat muammolarini “yetim bola” obrazi orqali ochib beradi. O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan G‘afur G‘ulom ham yetimlik mavzusida barakali ijod qilgan. “Netay”, “Yodgor”, “Shum bola” qissalari va “Sen yetim emassan” she’rida yetim bolalar hayoti, ularning ichki kechinmalari va jamiyatdagi o‘rni aks ettirilgan. “Shum bola” asarida sho‘x, irodali va sinovlarga bardosh beruvchi endigina 13-14 yoshlardagi beg‘ubor bolaning yelkasiga tushgan tirikchilik tashvishi, o‘yinqaroqligi ortiga yashiringan dardlari, zamonning zolimligi aks etadi. “Yetim bola” obrazi Zafar Diyor, Hakim Nazir, Iboxon, Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodida ham muhim o‘rin tutadi. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” va “Mungli ko‘zlar” asarlari ham yetim bolalar hayotining murakkab jihatlarini ko‘rsatadi. Tohir Malikning “Alvido, bolalik” asarida esa jinoyatchilikka yuz tutgan Asror obrazi orqali oilaviy mehr yetishmovchiligi, jamiyatning beparvoligi va axloqiy tanlov muammolari badiiy-falsafiy talqinda yoritiladi. Erkin Malikning “Onaizor” va “Yetim qolgan xotiralar” qissalarida ham yetimlikning ruhiy-ijtimoiy mohiyati teran tasvirlangan.

“Yetim bola” obrazining tadrijiy-evolyutsion takomilini tizimlashtirish G‘arb va Sharq adabiy an‘nalarining badiiy-estetik tamoyillarini o‘zaro qiyoslash imkonini beradi: G‘arb adabiyotida shakllangan realistik psixologizm paradigmasi individual ongning ichki inqirozlari, ruhiy kechinmalar va ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurash motivlarini markazga qo‘ysa, Sharq adabiyotida yetimlik ko‘proq tarbiyaviy-didaktik model, axloqiy komillikka yo‘naltiruvchi ruhiy poklanish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodida “yetim bola” obrazining yoritilish omillari” deb nomlanadi. Badiiy asar syujetida “yetim bola” obrazini yaratishda yozuvchi bir nechta masalalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi: 1) asar syujetining mazmunli bo‘lishi; 2) kitobxon uchun ibratli jihatlariga ega bo‘lishi; 3) psixologik ta’sir o‘tkaza olishi; 4) ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi. Adabiyotshunos M.Qo‘shjonov ta’kidlaganidek: “Har bir obraz o‘z shakl-shamoyili, asardagi g‘oyaviy vazifasidan tashqari, xarakterning biron tomonini ochishga, yoritishga xizmat qiladi”<sup>11</sup>. “Yetim bola” obrazi bolalarga xos xarakter va orzu-umidlarni to‘liq yoritadi, chunki ularning hayotida ularga ta’sir ko‘rsatuvchi ota-onalar bo‘lmaydi. Ushbu faslda “yetim bola” obrazini tahlil qilishda biografik va sotsiologik metodlardan foydalangan holda, yozuvchilarning hayoti, ijtimoiy muhit va adabiy sharoit ta’siri o‘rganildi. K.P.Kertis “Baddi emas, Bad” asarida “yetim bola” obrazini Qo‘shma Shtatlardagi afro-amerikalik jamoalar kontekstida ko‘rsatib, irqiy tengsizlik, segregatsiya va iqtisodiy adolatsizlik kabi muhim masalalarni yoritadi. A.Rasulov ta’kidlaganidek, yozuvchi o‘ziga tanish muhit, kishilar va o‘zaro aloqalarni tasvirlaganda qahramonlar tabiiy namoyon bo‘ladi. Kertisning asarida voqealar o‘zi yashagan joy – Flint, Michiganda va bobosi yashagan zamon – Buyuk depressiya davrida kechadi. Makonning real va yorqin ta’rifini berishda yozuvchi o‘z xotiralari va kuzatishlariga tayanadi. Asardagi tarixiy kontekst ham yozuvchiga begona emas, Buyuk Depressiya va Fuqarolik huquqlari urushlari davri haqida Kertis juda chuqur o‘rganadi. Katta oilada tarbiyalangan yozuvchi romanlarida oilaviy munosabatlar va dinamikani tasvirlashda ham o‘z tajribasiga tayanadi. Hatto ayrim qahramonlarini yaratishda ham hayoti davomida tanigan yoki kuzatgan odamlardan ilhomlanganligini ta’kidlaydi: “*Baddi emas, Bad*” asari badiiy to‘qima bo‘lishiga qaramay, *Bad duch kelgan ko‘plab vaziyatlar 1930-yillarda, Buyuk Depressiya davrida ro‘y bergan voqealarga asoslangan. “Baddi emas, Bad” asaridagi qahramonlar badiiy to‘qima bo‘lsa-da, ularning ayrimlari haqiqiy insonlarga asoslangan...*”<sup>12</sup>. K.Kertis asardagi Badga yordam bergan Lefti Lyuis qiyofasida onasi tomondan bobosi Earl ni, German E.Kellouey obrazi orqali esa ota tomondan bobosi German E.Kertisni tasvirlaydi.

X.To‘xtaboyev ijodida ham “yetim bola” obrazi avtobiografik xarakterga ega. Yozuvchining hayoti va ijodini o‘rgangan, u bilan yaqindan tanish bo‘lgan Umarali Normatov va Abdug‘afur Rasulov adib ushbu obrazni yaratishda bolalik xotiralariga tayanganini ta’kidlaydi. Uning “Besh bolali yigitcha” romani yozuvchining shaxsiy kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lib, bolalikda boshdan kechirgan voqealarini, urush davrida yetim qolgan bolalarning hayotini eslab yozilgan: “*Besh bolali yigitcha*” romani o‘sha og‘ir taassurotlar tug‘yoni ifodasi sifatida maydonga kelgan. “*Qasoskorning oltin boshi*” romanida, “*Yillar va yo‘llar*” deb atalgan asarida yetim bolalar taqdiri zo‘r iztirob bilan qalamga olingan...”<sup>13</sup>. U o‘zi yaratgan qahramoni Orifjon kabi bolalar uyida yashagani, molboqarlik qilgani, hatto Toshkentdan Qo‘qongacha piyoda kelgan davrlarini xotirlaydi.

<sup>11</sup> Rasulov A. Badiiylik bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 3.

<sup>12</sup> Curtis Ch.P. Bud, not Buddy. – New York: Delacorte Press, 1999. – P. 140.

<sup>13</sup> Normatov U. Sarguzasht sardori. – Toshkent: Adib, 2012. – B. 16.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Kertis va To‘xtaboyev asarlarida “yetim bola” obrazi quyidagi umumiyliklarga ega:

- 1) yozuvchilar hayotda ko‘rgan-kechirgan voqealarini aks ettirishi;
- 2) ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yoritishi;
- 3) bolalarda hamdardlik uyg‘otishi;
- 4) oila, o‘ziga xoslik, sabr-bardosh kabi universal mavzularni yoritishi;
- 5) yetim bolalar psixologiyasini ochib berishi.

Farqli jihatlar esa quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Kertis afro-amerikalik yetimlarning hayotini irq, sinf va tizimli adolatsizliklar nuqtayi nazaridan tasvirlaydi ya’ni ijtimoiy determinizm alohida o‘rin tuatdi.

2. To‘xtaboyev madaniy an’ana va xalq og‘zaki ijodini yetim bolalar obrazi orqali ochib beradi. Yozuvchi ijodida xalq og‘zaki ijodiga xos obrazlilikning dominant xarakter kasb etadi.

Shunday qilib, turli millat vakillari bo‘lishiga qaramay, ikkala yozuvchi ham yetim bolalar hayotiga o‘ziga xos yondashuvni ilgari suradi va ularning kurashlarini realistik hamda ta’sirchan tasvirlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida “yetim bola” obrazi poetikasi”** deb nomlanib, uning birinchi fasli *“K.Keris va X.To‘xtaboyev romanlarida “yetim bola” obrazining badiiy-poetik tahlili”* ga bag‘ishlanadi. “Yetim bola” obrazi bolalar adabiyotida ko‘p uchraydigan timsol hisoblanib, boshqa mashhur obrazlar singari “yetim” qahramonlar haqidagi asarlarni ham umumiy xususiyatlariga, yetimlar yashagan muhit yoki muayyan omillarga ko‘ra tasniflash mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval

### Yetim bola obrazi poetikasi

Asosiy jihatlar	Tavsif	Adabiy ifodalanish shakllari / usullari	Misollar
<b>1. O‘ziga xos jihatlar</b>	Yetim obrazlar – ijtimoiy tengsizlik qurboni, mehrga chanqoq, lekin kuchli iroda egasi	Ruhiy kechinmalar, ichki monologlar, tashqi ziddiyatlar orqali ochiladi	<i>“Baddi emas, Bad” (K.P.Kurtis), “Odina” (S.Ayniy), “Geklberifinning sarguzashtlari” (“The Adventures of Hucklberry Finn”) (M.Tven)</i>
<b>2. Ruhiy holati</b>	Yolg‘izlik, tushkunlik, umid, hayotga ishonch	Lirika, ichki monolog, tabiat tasviri orqali ifoda etiladi	<i>“Xayr, yetimlik” (E.Malik), “Besh bolali yigitcha”(X.To‘xtaboyev) “Suv o‘ti” (“Milkweed”)(Jerri Spinelli)</i>
<b>3. Timsoliy xususiyatlar</b>	Poklik, halollik, chidamlilik, begunohlik	Ramzlar orqali: qor (begunohlik), nur (umid), daraxt (yolg‘izlik, hayot)	<i>“Shum bola” (G.G‘ulom), “Jannati odamlar” (X.To‘xtaboyev), “Kichik oq ot” (“The Little White Horse”) (Elizabet Goudj)</i>

<b>4. Badiiy tasvir vositalari</b>	Badiiy tafsilotlar (kiyim, ko‘z, holat), dialoglar, muhit bilan qarama-qarshilik	Kontrast: boy-kambag‘al, mehribon-zolim, issiqlik-sovuqlik	“Zumrad va Qimmat” (ertak), “Yetim” (S.Ayniy), “Yosh akrobat” (Young Acrobat) (Horatio Alger)
<b>5. Ko‘p qatlamlilik</b>	Yetimlik nafaqat biologik holat, balki ijtimoiy va ma‘naviy yolg‘izlik timsoli	Jamiyatdan begonalashuv, tushunilmaslik, orzuga intilish orqali ochiladi	“Yetim poyezd” (“Orphan Train”) (K.B.Klayn), “Qasoskorning oltin boshi” (X.To‘xtaboyev)
<b>6. Dramatik kuch</b>	Voqealar, asosan, yetim bolaning sinovlari orqali quriladi	Konfliktlar markazida turadi – bola orqali voqelik tanqid qilinadi	“Yetim qolgan xoritalar” (E.Malik), “Jannati odamlar” (X.To‘xtaboyev), “33 baxtsizlik” (“A Series of Unfortunate Events”) (Daniel Hendler)

Yetimlar yashagan muhitga ko‘ra bunday asarlarni asosan uch turga ajratish mumkin: 1. Salbiy muhit (“Garri Potter”, “Oliver Twist”, “Zolushka”); 2. Loqayd muhit (“Haydi”, “Yashil Geybldagi Anna”, “Sirli bog”); 3. Ijobiy muhit (“Mashinist”, “Yonar daryo”). Bu kabi vaziyatlardan chiqishda asarlarda yozuvchilar foydalanadigan keng tarqalgan to‘rt xil yechimni ko‘rish mumkin:

- a) begona oilada qahramonni yoqtirib qolishadi;
- b) qahramon oila yoki yetimxonadan yaxshi hayot izlab qochib ketadi;
- c) qahramon ulg‘ayib balog‘atga yetadi va o‘z hayotini o‘zgartiradi;
- d) qahramon sharaf bilan qiyinchiliklarga dosh beradi va hikoya so‘ngida kimdandir najot topadi.

An’anaviy to‘rt yechimning ikkinchisi K.P.Kertis asarida va uchinchisi esa X.To‘xtaboyev ijodida uchraydi. K. P. Kertis va X. To‘xtaboyev ijodida an’ana va novatorlikning namoyon bo‘lishini tahlil qilar ekanmiz, Kertis asarlarida afro-amerika og‘zaki hikoyachilik an’analari va realistik psixologizmning ijtimoiy-adabiy modernizatsiyasi yetakchi o‘rin tutsa, To‘xtaboyev poetikasida esa folklorik kodlar, xalqona yumor va realistik-satirik yondashuvlarning zamonaviy estetik yangilanishlarga boy ekanligi namoyon bo‘ladi.

K.P.Kertis ham hayotdagi yetim bolalarni diqqat bilan kuzatib, asarlarida nafaqat ularning hayotiy qiyinchiliklari, hatto unga sabab bo‘lgan davr muammolarini ham, qahramonlar xarakterini ham alohida ochib bera oladi. “Baddi emas, Bad” va “Qudratli Miss Meloun” romanlarida yetim qahramonlar kurash va umid orqali hayot murakkabliklarini tushunishga harakat qiladilar. “Baddi emas, Bad” romanida Buyuk Depressiya davrida otasini izlab ketgan o‘n yoshli Bad Kolduell obrazi tasvirlanadi. Bad chidamli, topqir va o‘z qoidalariga amal qilib, hayotdagi qiyinchiliklardan o‘zini asrashga harakat qiladi. Bu jihati X.To‘xtaboyevning Orifjoniga o‘xshash bo‘lib, ikkisi ham qiyin vaziyatlarda tushkunlikka tushmaslik uchun ijodkorlik va topqirlik bilan yo‘l topadilar. Bad o‘zi yaratgan qoidalari, Orifjon esa afandilari bilan tushkunlikka tushishdan o‘zini asraydi. Bad Michigan shtatida otasini izlab uzoq yo‘l bosib o‘tsa, Orifjon ukalarini

olib, Toshkentdan Qo‘qonga yo‘l oladi. Ikkisi ham mashaqqatli sayohat davomida mustaqil va jasur bo‘lishni o‘rganadilar. Ularning jasorati turli vaziyatlarda namoyon bo‘ladi: Orifjon ukalarini himoya qilish uchun bezorilar bilan olishsa, Bad yetimxona va Amoslar uyidan qochib, qiyinchiliklarni yengadi. Shu tariqa, Kertis va To‘xtaboyev yaratgan yetim qahramonlar kurash, qat’iyat va umid timsoli sifatida gavdalanadi. Kertis zamonaviy ijtimoiy masalalarni yoritish orqali bolalarning ichki kechinmalari va jasoratini ko‘rsatsa, To‘xtaboyev an’anaviy qadriyatlar va folklor elementlari orqali insoniy hissiyotlarni aks ettiradi. Har ikki yozuvchi asarlarida sayohatnoma janridan foydalanib, qahramonlarning majburiy darbadarlik orqali o‘z maqsadlariga erishish yo‘li tanlanadi. Bu usul orqali ular kitobxonlarga ijtimoiy-siyosiy holat, tarixiy vaziyat va milliy urf-odatlarini ochib beradilar.

Bobning “*Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida zamon va makon mutanosibligi*” nomli ikkinchi faslida Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida zamon hamda makon uyg‘unligining badiiy ahamiyati va ularning qahramonlar rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilindi. Zamon va makon badiiy asar kompozitsiyasida voqealar rivoji, qahramonlar harakati va asarning umumiy mazmunini shakllantirish bilan birga, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ham chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Muayyan obrazning fe‘l-atvori, qarashlari, harakatlari uning yashayotgan davri va muhitiga ma‘lum darajada bog‘liq. Har qanday badiiy asar zamon va makon birligida rivojlanadi. Bu birlik hikoya ritmi, voqealarning hayotiyliigi va qahramonlarning hissiy kechinmalarini aniqroq ifodalash imkonini beradi. Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida zamon hamda makon uyg‘unligi qahramonlarning shaxsiy rivojlanishi, tarixiy voqeliklarni aks ettirish va asarning ta’sirchanligini oshirishda asosiy badiiy vosita hisoblangan.

Kristofer Pol Kertisning “Baddi emas, Bad” asarida Buyuk Depressiya davri (1930-yillar) AQShidagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolar Badning sayohati orqali yoritilgan. Zamon va makon uyg‘unligi orqali irqiy tengsizlik, qashshoqlik va qahramonning ichki dunyosi chuqurroq ochib berilgan. *Flint va Grand Rapids* kabi joylar voqealar rivojini tarixiy hamda madaniy kontekstdagi haqiqat bilan bog‘laydi. Bad “Uy” deb ataydigan yetimxona, Guvervildagi gulxan atrofi va The Sweet Pea (Shirin no‘xat) restoranini ramziy ma’noda tahlil qilish mumkin. “Uy” – Bad uchun izolyatsiya, yolg‘izlik va xavf-xatar ramzi. Bad u yerda o‘zini sevimli va xavfsiz his qilmaydi. Guveril gulxani esa tolerantlik, birlik ramzi, u yerda Buyuk Depressiya davrida uylarini yo‘qotgan turli insonlar bir-biriga yaqinlashishadi. Ushbu gulxan zulmatdagi yorug‘lik, depressiv davrda yangi jamiyat paydo bo‘lishiga ishora qiladi.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” asarida esa Ikkinchi jahon urushi davridagi O‘zbekiston hayoti zamon va makon uyg‘unligida tasvirlanadi. *Toshkent, Qo‘qon* kabi shaharlar voqealarning ijtimoiy va tarixiy sharoitlar bilan bog‘liqligini ochib beradi. Qahramonlar oyog‘i yetib borgan har qanday makonda: yetimxona, maktab, bozorlar, militsiyaxona, detkoloniya, temir yo‘l qorovuli va “pakana buvi”ning uyi, xullas, urushdan minglab kilometr uzoqda bo‘lgan qishloqlarda ham, hamma-hamma yerda davr nafasi ufurib turishi, urush hech kimning hayotiga ta’sir etmay qolmagani haqqoniy tasvirlangan. “*Urush*

yillaridagi o‘qish kartinasi ham, bolalar uyidagi yetim bolalarning yashash tarzlari ham juda tiniq “chiziladi”.<sup>14</sup>

Kertis bosh qahramon tarixiga nazar tashlash, xulq atvorini aniqroq ifodalash uchun retrospeksiya (zamonning ortga qaytishi) usulidan foydalangan. Masalan, Bad yetimxonadagi Jerryning uch qizi bor oila tomonidan boqib olinayotganini eshitib, unga rahmi kelar ekan, u bilan teng bo‘lgan yoshida, ya’ni olti yoshidagi voqealarni eslay boshlaydi yoki Bad Amoslar xonadonida chemodaniga ko‘z tashlar ekan, onasining rasmini tasvirlab, u bilan bo‘lgan suhbatlarini eslab ketadi. Kertis asarida prospeksiya (foreshadowing) ham qo‘llaniladi. Masalan, Bad onasining o‘g‘itlari orqali bir eshik yopilsa, boshqasi ochilishi mumkinligini anglab yetishi Badning hayotidagi o‘zgarishlar va yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga ishora qiladi. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida esa voqealar xronologik izchillikda yuz bersada, retardatsiya (zamonning sekinlashishi shakllari)ni ham kuzatish mumkin. Asosan asar boshida bu usulni yaqqol sezish mumkin. Masalan, Orifjonning otasi-Mirzapolvonni urushga chaqirilishi, chaqiruv qog‘ozini otasiga yetkazishi voqeasi juda batafsil tasvirlangan.

Kertis va To‘xtaboyev asarlarida zamon hamda makon voqealarning ta’sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Kertis Buyuk Depressiya davrining ijtimoiy ziddiyatlarini Badning hissiy kechinmalari orqali aks ettirsa, To‘xtaboyev urush yillarining musibatlarini Orifjonning kundalik hayoti orqali ifodalaydi. Har ikki yozuvchi zamon va makonni tasvirlash orqali kitobxonni qahramonlar kechinmalari bilan tanishtiradi.

Ikkinchi bobning uchinchi faslida “*Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida badiiylik konsepsiyasi va tarixiy davrning badiiy talqini*” haqida fikr yuritiladi. Yozuvchilar asarlarida badiiylik mezonlari o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularni tarixiy voqelik va ijtimoiy masalalarga oshno qilishda muhim vosita sifatida ishlatilgan. Ikkala yozuvchi ham tarixiy davr voqealarini badiiy tarzda talqin qilish orqali o‘quvchilarni o‘tmishdagi muhim voqealar bilan tanishtiradi va tarixiy davrni estetik refleksiya hamda ideologik interpretatsiya orqali qayta talqin qiladi. K. P. Kertis tarixiy voqelikni afro-amerikalik bolalarning ruhiy kechinmalari va ijtimoiy tengsizlik sharoitidagi hayotiy tajribasi orqali yoritib, o‘tmishning ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarini psixologik anglash darajasiga ko‘taradi. X. To‘xtaboyev esa urush davri haqiqatini xalqona yumor, satira va ramziy obrazlar vositasida badiiy qayta talqin etib, ideologik muhitni bolalar idrokiga mos, yumshatilgan estetik shaklda aks ettiradi. Shu tariqa, har ikki adib tarixni faqat fon sifatida emas, balki qahramonning ruhiy o‘sishi va ijtimoiy pozitsiyasini belgilovchi markaziy badiiy omil sifatida namoyon qiladi. Kristofer Pol Kertisning “Baddi emas, Bad” romanida Buyuk Depressiya davrining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, irqiy tengsizlik va qashshoqlik muammolari hayotiy haqiqatga sodiqlik mezoni asosida tasvirlangan: “...*Right before we got into the cardboard jungle we passed the white people with the coughing baby at their own little fire. I said to Deza, “How come there’re off alone, they aren’t allowed to sit*

---

<sup>14</sup> To‘xtaboyev X. Besh bolali yigitcha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 8.

around the big fire 'cause that baby's making so much noise?" Deza said, "Uh-uh, they been invited, but my daddy said you got to feel sorry for them. All they're eating is dandelion greens soup, they're broke, their clothes are falling off them, their baby's sick but when someone took them some food and blankets, the man said, "Thank you very much, but we're white people. We ain't in need of a handout"<sup>15</sup>.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" romanida Ikkinchi jahon urushi davridagi ocharchilik, mehnat qiyinchiliklari va bolalarning hayotiy sinovlari tasvir hamda ifodaning aniqligi mezoni negizida aks ettirilgan: "...Urushdagi ahvoldan, biznikilar juda qattiq jang qilayotganidan, bozordagi narx-navo oshib borayotganligidan nolib gaplashishardi. Bir xil yurtlarda qattiq ocharchilik boshlanib ketibdi. Odamlar ko'chalarda sulayib qolayotgan emish, qo'shni qishloqda o'n bir kishi shishib o'libdi. Bittasi sholining to'ponidan non yopgan ekan, tandirda yonib ketibdi"<sup>16</sup>.

Har ikki yozuvchi asarlarida tarixiy faktlarni hayotiy voqealar bilan uyg'unlashtirib, o'quvchini qahramonlar dunyosiga yaqinlashtiradi va voqealarni to'laonli anglash imkonini beradi.

Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida folklor elementlari, xalq maqollari va ertak motivlari keng ishlatiladi. Bu usul milliy qadriyatlarni aks ettirish bilan birga asarlarning badiiy jozibasini oshiradi: "Yetimning qorni besh bo'lur, biri hamisha bo'sh bo'lur"<sup>17</sup>; "Narigi dunyoga borsangiz, Opajonimni ko'rsangiz, Orifjondan salom deng"<sup>18</sup> (ushbu satrlar xalq og'zaki ijodidagi "Salom ayting" motivini eslatadi<sup>19</sup>). Kertis asarlarida esa madaniy chizgilari Amerika jamiyatining tarixiy voqeliklari bilan birga tasvirlanadi, masalan, jazz musiqasi va boshqa madaniy elementlar orqali o'quvchilarning e'tibori jalb etiladi. "Baddi emas, Bad" va "Besh bolali yigitcha" asarlarida badiiylik jonli tasvirlar, qiziqarli voqealar hamda qahramonlarning asar davomida ma'nan va ruhan ulg'ayishi orqali namoyon bo'ladi.

Uchinchi bob "**Yetim bola obrazi tasvirida jamiyat va ruhiyat uyg'unligi**" deb nomlanib, birinchi fasli "*Bosh qahramon badiiy obrazining talqini va personaj ichki kechinmalarining bolalarga xos tasviri*"ga bag'ishlanadi. Adabiyotda bosh qahramonning ruhiy olamini yoritish uning xarakterini chuqur anglashda muhim ahamiyatga ega. Bad va Orifjon obrazlari o'zlarining ichki kechinmalari, hayotiy kurashlari orqali jonli va realistik tarzda tasvirlangan. Badning hayotiy qoidalari o'zini himoya qilish mexanizmlarini aks ettiradi. U hayotning qiyinchiliklariga moslashadi va bolalik davridagi beg'uborlikni saqlab qolishga intiladi: *When You Wake Up and Don't Know for Sure Where You're. At end There's a Bunch of people*

---

<sup>15</sup> Curtis.Ch.P. Bud, not Buddy. – New York: Delacorte Press. 1999. – P. 46. "...Karton o'rmonga kirishimizdan oldin, kichik gulxan atrofida yo'talayotgan chaqaloq bilan o'tirgan oq tanlilar yonidan o'tdik. Men Dezaga shunday dedim "Nega ular yolg'iz, chaqaloq ko'p shovqin qilayotgani uchun ularga katta olov atrofida o'tirishga ruxsat berilmadimi?" Deza dedi, "Uh-uh, ular taklif qilinganlar, lekin otam ularga achinish kerak deydi. Ularning yegani faqat momaqaymoq ko'katli sho'rva, pullari qolmagan, kyimlari yirtilib ketgan, chaqaloqlari kasal, ammo (shunday holatda ham) biror kishi ularga ovqat va ko'rpa olib borsa, (oq tanli) erkak "Katta rahmat, lekin biz oq tanilarmiz. Biz xayr-ehsonga muhtoj emasmiz" dedi.

<sup>16</sup> To'xtaboyev X. Besh bolali yigitcha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 23.

<sup>17</sup> To'xtaboyev X. Besh bolali yigitcha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 194

<sup>18</sup> To'xtaboyev X. Besh bolali yigitcha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B.187.

<sup>19</sup> Normatov U. Sarguzasht sardori. – Toshkent: Adib, 2012. – B. 6.

*Standing Around You. It's Best to pretend You're Still Asleep. Until You Can Figure Out What's Going On and What You Should Do*<sup>20</sup> (Ushbu qoidani amalda qo'llash orqali Bad Slit xonimning unga munosabatini, otasi deb o'ylagan insonning Grand Rapidsda obro'li inson ekanini, uning ayoli ancha oldin o'tib ketgani, Badning onasi uning ikkinchi ayoli bo'lgani, Badning o'gay opasi ham bo'lishi mumkinligini ota va qizning suhbatlaridan anglab oladi).

“Besh bolali yigitcha” romanida esa asar bosh qahramon tomonidan hikoya qilingani bois uning fikrlari bayoni o'quvchiga Orifjon ruhiyatini osongina anglash imkonini beradi: “...*Hozir esa hecham o'ynay olmayman, o'yinga berilib ketsam, uydagi ishlarim qolib ketadi. Keyin opam xafa bo'lib qolishi mumkin. Men opamni yaxshi ko'raman, juda, juda ham yaxshi ko'raman, hecham xafa qilmasam, hecham yig'latmasam deymen. Opam ham meni yaxshi ko'radi: “Hayriyatam esim yo'g'ida seni tug'ib olgan ekanman, bo'lmasa, ahvolim nima kechardi” – deb, erkalatgani erkalatgan....*”<sup>21</sup> Urush yillari qiyinchiliklari uni nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham chiniqtiradi. Orifjonning ichki kechinmalari ifodasi uning singil va ukalariga bo'lgan mehrini, oilasi uchun javobgarlik hissini hamda o'z xatosini tushunish jarayonini yoritadi. Har ikki asarda ichki monolog vositasida qahramonlarning ichki dunyosi, hissiy kechinmalari va ruhiy holati o'quvchiga ochib berilgan. Qahramonlarning ruhiy holatlar dinamikasi, emotsional munosabatlar tizimi, ichki konfliktlar, ijtimoiy moslashuv jarayonlari va identifikatsiya mexanizmlari ham ichki monolog orqali yuzaga chiqadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ikki asarda ham qahramon ruhiyati sinkretik prinsip orqali, ya'ni qahramonlarning ruhiy dunyosi ularning qiyofalari, xatti-harakatlari hamda fikr va hissiyotlari dialektikasi oqimi va rivojining dialektik uyg'unligi orqali beriladi. Shu bilan birga, ruhiyat tasvirida yumor yetakchi o'rin tutadi.

“*Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida bola ruhiyatiga ijtimoiy muhitning ta'siri*” faslida Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida bola ruhiyatining jamiyat, ijtimoiy muhit va tarixiy sharoitlar ta'sirida shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Bola ruhiyati jamiyatning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlariga bevosita bog'liqligi ushbu ijodkorlarning asarlari mazmunida yashiringan haqiqatdir. Har ikki yozuvchi asarlarida bola ruhiyatining jamiyat sharoitlariga moslashuvi va shu sharoitlar ta'sirida qanday shakllanishi ishonarli tasvirlangan. Kristofer Pol Kertis asarlarida Buyuk depressiya davridagi ijtimoiy muammolarning bolaning shaxs sifatida shakllanishi, irodasining mustahkamlanishidagi ta'siri aks etgan, ya'ni irqiy adolatsizlik, iqtisodiy qashshoqlik va jamiyatdagi diskriminatsiya bola ruhiyatidagi ichki kurashlarni ifodalaydi. Badning boshpanasizligi va yolg'izligi uni mustaqil hamda qat'iyatli bo'lishga o'rgatadi.

---

<sup>20</sup> Curtis Ch.P. Bud, not buddy. – New York: Delacorte Press. 1999. – P.71 (“Uyg'onganingizda qayerda ekanligingizni aniq bilmasangiz va atrofingizda bir guruh odamlar turgan bo'lsa, nima bo'layotganini va nima qilishingiz kerakligini tushunib olguningizcha, o'zingizni uxlayotganga solib, yotganingiz ma'qul”).

<sup>21</sup> To'xtaboyev X. Besh bolali yigitcha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 12.

Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida Ikkinchi jahon urushi sharoitida ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklar bolalarning erta ulg‘ayishiga sabab bo‘luvchi vosita sifatida ko‘rsatilib, urush davridagi ochlik, ota-onadan ayrilish va og‘ir iqtisodiy sharoit bolalarni ruhan chiniqishga majbur qiladi. Orifjon bu qiyin sharoitda nafaqat oilasini qo‘llab-quvvatlaydi, balki o‘z qadr-qimmatini ham saqlab qoladi. Roman qisman yozuvchining bolalik xotiralarini “tiriltiradi” va o‘sha onlardagi tuyg‘u-kechinmalarini asar qahramonlariga “ko‘chiradi”. Yozuvchi qalbidagi iztirob va dardlarni qanchalik aniq ifodalagan bo‘lsa, qahramonning ruhiy holati ham shunchalik tabiiy hamda hayotiy tasvirlanadi. Otasining urushga olib ketilishi, onasining o‘limi, ukasi Sultonning yo‘qolib qolishi, singlisining qattiq betob bo‘lishi, bolalarning axloq tuzatish koloniyasiga tushib qolishi kabi hayot tomonidan berilgan zarbalar “besh bolali yigitcha” ruhiyatini sinovlardan o‘tkazadi. Avval boshiga kelayotgan tashvishlardan Orifjon gangib qoladi: “...*O‘tirgan joyimda o‘tirib goldim. Juda g‘alati bo‘lib ketyapman, xafamanmi, xursandmanmi, o‘zim ham bilmayman, yig‘lashim kerakmi, kulishim kerakmi, ishonsangiz, bunisiniyam bilmayman...*”<sup>22</sup>. Alohida tafsilotlarga to‘xtalmasdan, muallif qahramon ruhiyatidagi tushkunlikni personaj nutqi orqali ifodalaydi.

Har ikki yozuvchi bolalar ruhiyatining nozik qirralarini ochib berish orqali bola tasavvuri, hissiyoti va ijtimoiy moslashuvchanligiga diqqatni qaratadi. Yozuvchilarning realistik va badiiy yondashuvlari asarlarning tarbiyaviy hamda ma’naviy ahamiyatini oshiradi.

“*Yetim bola*” obrazining xarakteri va tashqi portreti: badiiy ifoda va qiyosiy tahlil” nomli oxirgi faslda “Baddi emas, Bad” va “Besh bolali yigitcha” asarlaridagi “yetim bola” obrazlarining xarakteri hamda ijodkorlarning portret yaratish mahoratining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

Bad va Orifjon obrazlarini yaratishda yozuvchilar ikki xil yondashuvdan foydalangan. Bad obrazi N.G.Chernishevskiy tomonidan “*san‘atning voqelikka estetik munosabati*” deya ta’rif berilgan jamlash usulida yaratilgan, bu yerda muallif hayotiy tajribalariga asoslanib, xarakter va detallarni tasvirlaydi. Orifjon esa prototip asosida, bolalikdagi tajribalarga tayanib yaratilgan. Yaratish usuliga ko‘ra esa ikkala obraz bolalar adabiyotida nisbatan kamroq uchraydigan realistik obrazlardir. Obrazlar portretini Kristofer Pol Kertis asarning turli qismlariga sohib yuborib, qahramon xarakteri va tashqi ko‘rinishini o‘quvchilarga yo‘l-yo‘lakay asar davomida tanishtirib boradi: “*You think you got some kind of special privilege just ‘cause you’re skinny and raggedy?*”<sup>23</sup>, “*..they aren’t so bad that they’d lie to me about seeing a young brown-skinned boy...*”<sup>24</sup>, “*He doesn’t look like he’s been fed right*”<sup>25</sup>... Bad juda ozg‘in, terisi jigarrang, o‘n yoshli yetim bola. Yuzida shishlar, qizarishlar va ba’zi joylarida chandiq izlari bor. Bu izlar Amoselar tomonidan jazo

<sup>22</sup> To‘xtaboyev X. Besh bolali yigitcha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 14.

<sup>23</sup> Curtis Ch.P. Bud, not buddy. – New York: Delacorte Press, 1999. – P. 26 (“*Sen faqatgina ozg‘in va eski kiyimda ekanliging uchun maxsus imtiyozga egaman deb o‘ylaysanmi?*”).

<sup>24</sup> Curtis Ch.P. Bud, not buddy. – New York: Delacorte Press, 1999. – P. 59 (...mening ko‘zlarim shunchalik yomon emaski, ular menga jigarrang terili yosh bolani ko‘rganim haqida yolg‘on gapirsa...”).

<sup>25</sup> Curtis Ch.P. Bud, not buddy. – New York: Delacorte Press, 1999. – P. 71 (“*U yaxshi boqilmaganga o‘xshaydi*”).

sifatida shiyponda qamalib, qovog‘arilar bilan qilgan “jang”dan esdalik. Kiyimlari kichik kelib qolgan, eski va yirtilgan edi.

Badning portreti dinamik tarzda tasvirlasa, Orifjonning tashqi portreti o‘z tilidan bayon qilinadi: *“Belim sal bukiroq, buni o‘zim ham tan olaman, ukalarimni ko‘taraverib, shunaqanggi bo‘lib qolganman, bo‘yim ham tengqurlarimga qaraganda sal pastroq, buni ham inkor qilmayman. Men yuqoriga qarab o‘samam deganimda ukalarim yelkamga minib olib, pastga qarab bosishavergan. Shuning uchun pakanaroq bo‘lib qolganman”*<sup>26</sup>. Xudoyberdi To‘xtaboyev barcha qahramonlari portretini ularning xarakteri bilan uyg‘un holda tasvirlab, ko‘rinishga ta’sir qilgan salbiy va ijobiy fazilatlarni ham o‘quvchiga bildirib ketadi. Obrazlar xarakteridagi o‘xshash va farqli jihatlarni tahlil qilar ekanmiz, Orifjonning Badga nisbatan ijobiyroq, ya’ni salbiy qusurlardan xoli tarzda tasvirlanganini ko‘rish mumkin. Chunki Sharq adabiyotida, falsafasida, hatto bolalar adabiyotida ham barkamollikka intilish, insonni ruhan va qalban poklikka chorlash, ma’naviyatni ulug‘lash birinchi o‘rinda turadi.

Romanlar yakunida ikki “yetim bola” obrazi ham o‘z ko‘zlagan maqsadiga aniq yetib bora olmaydi, Bad o‘z otasini topa olmaydi. U otasi deb o‘ylagan inson bobosi bo‘lib chiqadi. Orifjon esa butun oilasini bir joyda to‘play olmaydi. Sulton va Usmon bolalar uyida qolishni afzal ko‘rishadi. Bunday xotima asarlarning va obrazlarning hayotiyiligini ta’minlaydi. Bad otasi bilan bo‘lmasa-da bobosi bilan baxtli hayot kechira boshlaydi, endi uning o‘z kasbi, uyi va oilasi bor. Orifjon esa ota-onasining vasiyatini ro‘yobga chiqarib, uyining chirog‘ini o‘chirmaydi, Zulayhoni o‘qishga yuboradi, o‘zi esa jamiyatda o‘rnini topadi. U kolxozga brigadir qilib tayinlanadi. Ukalari Sulton va Usmon ham xavfsiz joyda, qorni to‘q, usti but hayot kechira boshlashadi. K.P.Kertisning ham, X.To‘xtaboyevning ham asarni yaratishdagi g‘oyaviy maqsadi fantastik hikoyalardagidek “yetim bola” obrazlarini favqulodda qahramonona jasoratlar ko‘rsatib, maqsadga yetkazish emas, obrazlar tasvirini realistik usulda, yutuq va kamchiliklari bilan tabiiy aks ettirish, ularning sarguzashtlari, jamiyatdagi o‘rni, insonlar bilan munosabatini tasvirlash, davr ko‘rguliklari hamda hayot tashvishlarining bolalar ruhiyatiga ta’sirini idrok etish va kitobxonlarning ruhiy-ma’naviy olamini boyitish bo‘lib, o‘zaro uyg‘unlikni hosil qiladi.

## XULOSA

1. Jahon va o‘zbek adabiyotida “yetim bola” obrazi murakkab ijtimoiy, psixologik va ma’naviy masalalarni yoritishda universal vosita hisoblanadi. Bu obraz insoniyatning hayotiy tajribalari, qiyinchiliklar va umidlarini aks ettiradi. “Yetim bola” obrazi jahon adabiyotida asosan ijtimoiy muammolarni ochib berish, adabiy va estetik qadriyatlarni shakllantirishda ramziy vosita sifatida qo‘llanilgan. V.Jirmunskiy, N.Konrad va D.Dyurishin kabi adabiyotshunoslarning nazariyalari yetim obrazining ijtimoiy tahlil va badiiy tasvirni uyg‘unlashtirishdagi ahamiyatini

---

<sup>26</sup> To‘xtaboyev X. Besh bolali yigitcha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 6.

ta'kidlaydi. Ushbu obraz adabiyotda insonning zaif tomonlari va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlash ehtiyojini aks ettiruvchi badiiy unsur hisoblanadi.

2. Qadimiy diniy matnlar, xususan, Qur'oni karim va Bibliyada yetimlarga yordam berish oliy qadriyat sifatida talqin qilingan. Bu ma'naviy asoslar adabiyotda yetim bola obrazining rivojlanishi va ahamiyatini ta'minlagan. "Yetim bola" obrazining adabiyotdagi o'rni XIX asr ijtimoiy realizm davrida boshlandi, Dikens va boshqa yozuvchilar uni imperializm va jamiyat muammolarini ko'rsatishda ishlatdilar. XX asrda psixologik tahlil rivojlanishi bilan, yetim bolalarning ichki dunyosi va psixologiyasi o'rganila boshlandi. Ikkinchi jahon urushidan keyin, urushning salbiy oqibatlarini aks ettirish uchun "yetim bola" obrazlariga ko'proq e'tibor qaratildi. 1980-1990-yillarda yetimlik motiviga qiziqish oshdi va XXI asrda bu tendensiya global istiqbollar asosida davom etdi.

3. Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To'xtaboyevning "yetim bola" obrazini yoritgan asarlari bolalar adabiyotining realistik janrida yozilgan bo'lib, ularning umumiy jihatlari hayotiy tajribalarning aks ettirilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yoritilishi, oila va mehr-oqibat kabi universal mavzularning ko'tarilishi va yetim bolalar psixologiyasining ochib berilishida namoyon bo'ladi. Farqli jihatlari esa shundaki, Kertis yetimlar hayotini afro-amerikalik jamoalarning tarixiy va ijtimoiy kontekstida ko'rsatadi, irqiy va sinfiy adolatsizliklarni ifodalaydi, To'xtaboyev esa madaniy an'analar va xalq og'zaki ijodi negizida yetim bolalar timsolini tasvillaydi.

4. "Yetim bola" obrazi bolalar adabiyotida keng tarqalgan timsol bo'lib, ushbu obraz turli murakkab vaziyatlarni boshidan kechiradi: qahramon yomon sharoitdan qochib ketadi, ulug'ayib hayotini o'zgartiradi yoki qiyinchiliklarga dosh berib najot topadi. Kertisda qahramon yetimxonadan qochib ketadi, To'xtaboyevda esa o'zgarishlarga erishish uchun ulg'ayadi. Har ikkala yozuvchi o'z asarlarida "yetim bola" obrazini jasoratli, mustahkam xarakterga ega va maqsad sari intiluvchan bola sifatida namoyon qiladi, lekin ularning dunyoqarashi va tarbiyasi o'rtasida tafovutlar mavjud.

5. Kertis va To'xtaboyev asarlarida zamon va makon konsepsiyalari o'zaro bog'liq tarzda ifodalangan bo'lib, bu orqali mualliflar ijtimoiy va tarixiy muammolarni yoritadilar. Har bir asarda voqealar o'ziga xos ijtimoiy-madaniy kontekstga joylashtirilgan, bu esa o'quvchiga zamon va makonning ta'sirini anglash imkonini beradi. Ikkala muallif ham tarixiy davr ruhiyatini badiiy tarzda aks ettirishga muvaffaq bo'lgan: Kertis 30-yillardagi Buyuk Depressiya davrini, To'xtaboyev esa ikkinchi jahon urushidan keyingi o'zbek jamiyatining ruhiy va ijtimoiy qiyinchiliklarini yoritadi. Asarlarning badiiy zamon shakllarida, retrospeksiya va retardatsiya usullari qo'llanilishi, mualliflarning zamon va makon mutanosibligini yaratishdagi mahoratini ko'rsatadi.

6. Asarlarda ijtimoiy muammolar, masalan, irqiy tengsizlik, kambag'allik, ta'lim tizimidagi muammolar va yetimlik badiiy tarzda yoritiladi. Ikkala muallif ham badiiy vositalardan, jumladan, metafora, metonimiya, epitet, simvolizm, antiteza va boshqa usullardan o'rinli foydalanib, asarlarning badiiy jozibasini oshirishga erishgan. Kertis va To'xtaboyevning asarlarida tarixiy voqealar, ijtimoiy muammolar

va inson tabiatini badiiy tarzda yoritish orqali kitobxonga o'sha davr va jamiyat haqida teran ma'lumot beriladi.

7. Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To'xtaboyev asarlaridagi "yetim bola" obrazlari psixologizmning analitik prinsipi orqali ochiladi. Kertis qahramonning ichki tuyg'ularini va fikrlar oqimini monologlar orqali chuqur ifodalaydi, To'xtaboyev esa dialog va monolog yordamida o'quvchini xulosalar chiqarishga undaydi. Kertisda qahramonning ruhiy holati aniqroq tasvirlanadi, To'xtaboyev esa o'quvchiga mustaqil fikr yuritish imkonini beradi. Ikkala asarda ham voqealar bosh qahramonlar tilidan hikoya qilinadi, yozuvchining subyektiv yondashuvi orqali bolalar ruhiyati va xarakteri yoritiladi.

8. Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida bola ruhiyatiga jamiyatning ta'siri yoritilgan. Qahramonlarning psixologik rivojlanishi ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Bolalar qiyinchiliklarga bardosh berib, atrofdagi odamlar va ijtimoiy adolatsizliklarga munosabat ta'sirida kamol topadilar. Ijtimoiy muhit bola ruhiyatini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko'rsatiladi. Kertisning "Baddi emas, Bad" asarida Bad iqtisodiy tanazzul va irqiy tengsizlik tufayli qat'iyatlilik va bardoshlilikni rivojlantiradi. To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asarida esa Orifjon ruhiyati oilaviy inqiroz va jamiyat bosimi ostida shakllanadi. Ikkala asar ham ijtimoiy muammolarni bolalar ruhiyatiga ta'sirini chuqur psixologik tahlil yordamida ochib beradi.

9. K.Kertis qahramonining kiyimi va jismoniy holati orqali uning og'ir o'tmishini va bardoshli tabiatini ko'rsatadi. X.To'xtaboyev esa Orifjonning quvnoq, samimiy, mehnatkash va mas'uliyatli sifatlarini tasvirlaydi. Bad va Orifjon obrazlari yetimlik tufayli shakllangan xarakterlari bilan farq qiladi: Bad qiyin vaziyatda kattalarga qarshi kurashgan bo'lsa, Orifjon bolalarcha samimiylikni saqlaydi. Har ikki qahramon o'z davri bolalarining ruhiy qiyinchiliklarini realistik tarzda ifodalaydi.

10. Kertis va To'xtaboyev asarlarida jamiyatning bola ruhiyatiga ta'siri orqali yetimlik muammosi nafaqat ijtimoiy, balki psixologik nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga egaligi ochib beriladi. Bad va Orifjon o'z orzu-maqсадlariga yetolmasalar ham, hayotlarida yangi bosqichni boshlashga muvaffaq bo'lishadi. Bad bobosi bilan baxtli hayot kechirib, o'z kasbi va oilasini topadi; Orifjon esa otasining vasiyatini bajarib, ukalari uchun tirgak bo'la oladi va jamiyatda o'z o'rnini egallaydi. Ikkala yozuvchi ham "yetim bola" obrazlarini realistik tarzda, bolalarga tushunarli va ta'sirli bir shaklda tasvirlab, ularning ruhiy va ma'naviy olamini boyitishga muvaffaq bo'lishgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSC.03/2026.31.01.FIL.45.01  
ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
AT UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY**

---

**UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY**

**KODIRJONOVA IKBOLA BAHODIR KIZI**

**THE IMAGE OF THE “ORPHAN CHILD” IN AMERICAN AND  
UZBEK CHILDREN’S LITERATURE: PERIOD AND SPIRITUALITY  
(BASED ON THE WORKS OF CHRISTOPHER PAUL CURTIS AND  
KHUDOYBERDI TUKHTABOEV)**

**10.00.06 – Comparative literary criticism, contrastive linguistics and translation studies**

**ABSTRACT OF THE DISSERTATION  
of the doctor of philosophy (PhD) in philological sciences**

**TASHKENT – 2026**

**The theme of the dissertation of Doctor of philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher education, science and innovation of the Republic of Uzbekistan under number B2023.3.PhD/Fil3854.**

The doctoral dissertation has been carried out at Uzbekistan State World Languages University.

The abstract of the dissertation has issued in three languages (Uzbek, English, Russian (abstract)) on the website of the Scientific Council ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) and on the “ZiyoNet” information and educational portal ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Scientific supervisor:**

**Makliyo Yunusovna Umarova**

Doctor of Science in Philology, Professor

**Official opponents:**

**Likhodzievsky Anatoly Stepanovich**

Doctor of Philological Sciences, Professor

**Kasimova Rano Rakhmatulloevna**

Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

**Leading organization:**

**Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi**

The defense of the dissertation will be held at the meeting of the Scientific Council numbered DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 at Uzbekistan State World Languages University on \_\_\_\_\_ 2026 at \_\_\_\_\_ (Address: 100138, Tashkent city, Uchtepa district, Street Kichik Halka Yuli, 21A. Tel: (99871) 230-12-91, fax: (99871) 230-12-92, e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru)).

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of the Uzbekistan State World Languages University (registered under the number \_\_\_\_). (Address: 100138, Tashkent city, Uchtepa district, Kichik halka yoli street, 21A. Tel: (99871) 230-12-91, fax: (99871) 230-12-92)

The abstract of the dissertation was distributed on \_\_\_\_\_ 2026.

(Report of the register number \_\_\_\_ on \_\_\_\_\_ 2026.)

**A.A.Nasirov**

Chairman of the Scientific Council on Awarding Academic Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

**Kh.B. Samigova**

Scientific Secretary of the Scientific Council on Awarding Academic Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

**J.A. Yakubov**

Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council on Awarding Academic Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

## INTRODUCTION (abstract of PhD dissertation)

**Topicality and relevance of the research.** In world literary studies, the impact of the socio-historical environment on the human psyche, the social and moral issues underlying the depicted reality, and the artistic analysis of the complex layers within the character's inner world are being examined from diverse perspectives. Events and phenomena occurring in social life inevitably influence transformations in human nature; however, while historical periods change, emotions remain constant, and human experiences retain their relevance to eternity. This process is particularly evident in the psyche of orphaned children, who become among the most sensitive indicators of such influences. The issue of the social impact on the psychology of children deprived of their parents at an early age has received serious attention from writers and researchers alike. Authors employ the image of the orphan child as an effective artistic device, through which they explore the purity of childhood and, by deeply analyzing it, strive to attain a fuller understanding of the complexities and contradictions of life. From this perspective, the fact that the image of the orphan child has not been studied in American and Uzbek literature from a macro-comparative standpoint underscores the relevance of the present research topic.

In world literary studies, comparative analysis of specific literary images serves as a means of identifying the mutual influences and literary interrelations between Eastern and Western traditions. This literary process calls for innovative philosophical and methodological approaches within contemporary literary criticism. Although the themes of "orphanhood" and the image of the "orphan child" have been widely depicted in children's literature, they have not been sufficiently analyzed across different national literatures in the context of the spirit of the age, creative individualism, and literary influences. In American literature, the orphan child is often represented, on the basis of Western values, as a resilient hero striving for personal freedom, independence in decision-making, and the determination to shape his own destiny. In portraying the evolutionary development of this character amid the challenges of racial inequality, poverty, and social injustice, writers reveal both universal and distinctive features in their artistic styles.

In Uzbek literature, too, the study of this theme is of significant importance, particularly the interpretation of complex emotions, social problems, and values as reflected through the image of the "orphan child" in children's literature. Through this image, ideals such as the glorification of family values, compassion, humanity, and tolerance are promoted. In our country, care for orphaned children, the creation of favorable conditions for them, and the decline in their numbers are directly connected with the people's high spirituality, humanism, and deep affection for children. As our President has emphasized:

"Indeed, the reduction in the number of orphanages and the children in them demonstrates the high spirituality, moral integrity, and love for children inherent in our people. However, it would be even better if there were no orphans at all in our

country. Therefore, measures should be taken to accelerate, as much as possible, the process of placing them into worthy families for adoption.”<sup>1</sup> Since children are the heirs of our future, raising them as physically strong, intellectually mature, morally upright, and well-educated individuals ranks among the highest priorities.

This research also contributes, to a certain extent, to the implementation of the tasks outlined in the Presidential Decrees and Resolutions of the Republic of Uzbekistan, including: the Decree of October 8, 2019, No. PF-5847 “On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”; the Decree of January 28, 2022, No. PF-60 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; the Resolution of May 19, 2021, No. PQ-5117 “On Measures to Bring the Promotion of Foreign Language Learning in the Republic of Uzbekistan to a Qualitatively New Stage”; the Resolution of April 20, 2023, No. PQ-128 “On Measures to Accelerate the Comprehensive Development of the Education System through Improving the Quality of Scientific, Methodological, and Research Work”; the Resolution of November 28, 2023, No. PQ-380 “On Measures to Implement the Project ‘A Thousand Books for Youth’”; as well as other regulatory documents related to the field.

**Relevance of the topic to the priority areas of scientific research in the Republic.** The dissertation has been carried out in accordance with Priority Area I of the Development of Science and Technology of the Republic: “Forming a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational development of an information society and a democratic state”.

**Research problem development.** Scholars of both Western and Eastern literary criticism have paid considerable attention to the representation of the world of childhood and the analysis of its inner dimensions. For this reason, the study of the image of the “orphan child” in children’s literature is considered among the important scholarly tasks. Theoretical and methodological issues concerning the representation of the child image have been explored in the works of American scholars such as M. Berg, M. A. Kimball, S. E. Reynolds, Y. Choi, A. A. Mattix, A. Zinat, E. E. Crane, J. M. Curtis, M. Mezyk, R. Shi, K. J. Rupertus, and D. Atkinson<sup>2</sup> Canadian scholar G. K. Sharon; English scholar W. D. Floyd; Swedish

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 8-aprelda o‘tkazilgan 102-zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashgan maktab internatida Saxovat, Muruvvat va Mehribonlik uylari hamda maxsus maktab-internatlar faoliyati bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan // <https://president.uz/oz/lists/view/5118>

<sup>2</sup>Berg, M. The outcast Orphan in German and American Literature, Doctoral thesis. – Washington: University of Washington, 1994. – 164 p.; A.Kimball, M. From Folktales to Fiction: Orphan Characters in Children's Literature//Library Trends, 1999. – № 47, 3. – P.558-578; Reynolds, S.E. Oliver all over again: Dickensian narratives of orphanhood, Tuscaloosa, Doctoral thesis. – Alabama: The University of Alabama, 2012. -236p.; Choi, Y. Orphans and Class Anxiety in Nineteenth-century English Novels. Doctoral thesis. – New York: Stony Brook University, 2008. -199p.; Mattix A.A. The orphan among Us: an Examination of Orphans in Newbery Award Winning Literature. Doctoral thesis. – Pittsburg: University of Pittsburg, 2012. 272 p.; Zeenat, A. The Spectacle of Orphanhood: Reimagining Orphans in Postbellum Fiction. Doctoral thesis. – 2015.-132p.; Graduate Theses and Dissertations Retrieved from <https://scholarworks.uark.edu/etd/1275>; Crain, E.A. The Power of the Other: A Character Analysis of the Orphan Figure in Children’s literature, Doctoral thesis. – Memphis: University of Memphis of Digital Commons, 2016. -160 p. <https://digitalcommons.memphis.edu/etd/1559>; Curtis J. M. In Absentia Parentis: The Orphan

scholar S. Friss; Spanish scholar T. H. Ali Kheir Bek; Czech scholars K. Vyoralova and L. Maslakova; Russian scholars O. Buksina and A. Lanu, N. A. Yushkina, Y. Y. Pavlenko and R. Kh. Sharyafetdinov, Y. V. Kamishova and V. N. Buldijova, T. Kachak; and Indian scholars S. Terangpi and G. Lalmavizuala.<sup>3</sup> Research by Z. Safarova, M. Norbaboeva, and A. Rajabov<sup>4</sup> has examined the image of the orphan child in the national-cultural context and sought to define its place in literature.

---

Figure in *Latter Twentieth Century Anglo-American Children's Fantasy*, Doctoral thesis. - Hattiesburg: University of Southern Mississippi, 2016. – 240p. <https://aquila.usm.edu/dissertations/322>; Mezyk M. *Orphan Benefactors and Orphan Innocence in Charles Dickens and Helen Hunt Jackson*, Doctoral thesis. - Montclair: Montclair State University, 2017. -34p. <https://digitalcommons.montclair.edu/etd/94>; Ruoqi shi B. A. *The Passionate Rebel: The Female Orphan in Jane Eyre, Wuthering Heights and Bleak House*. Master of Arts thesis. – Washington: Georgetown University, 2017.- 73 p. <http://hdl.handle.net/10822/1043856>; Rupertus Ch.J. *Anxieties Of Belonging: The Trope Of the Orphan In African American Novels*. Dissertation – Philadelphia: Temple University, 2018. -109p. <http://cdm16002.contentdm.oclc.org/cdm/ref/collection/p245801coll10/id/485357>; Atkinson, J. *The impact of mother-son relationships on the abandoned boy in children's literature*//Master of Arts thesis. – New Jersey: The State University of New Jersey, 2019. – 44p. <https://doi.org/10.7282/t3-br2m-cx17>;

